


Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-mart oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 % ga o'sdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 27,7 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,0 % ga o'sdi.




2020-yil yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)

2020-yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining hududlarida chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'ati kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'ati Shayxontohur (108,%), Olmazor (105,1 %), Chilonzor (103,9 %), Uchtepa (104,5 %) va Yunusobod tumanlarida (102,6 %) qayd etildi. Ayrim tumanlarda jumladan, Yakkasaroy tumanida (101,1 %) nisbatan past ko'rsatkich sezilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 467,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 9,6 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarining jamiga nisbatan ulushi



Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulushni Yunusobod (17,7 %), Shayxontohur (14,3 %), Mirzo Ulug'bek (10,4 %) tumanlari tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod (6,2 %), Uchtepa (5,4 %) va Bektemir tumanlarida (2,1 %) eng past ko'rsatkich qayd etildi.




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-mart

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 27,7 % ni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Chilonzor (28,5 %), Yakkasaroy (14,6 %), Shayxontohur (12,3 %) va Sergeli (10,8 %). Ushbu tumanlar chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (jamiga nisbatan, foizda)





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


2020-yil yanvar-mart

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3407,0 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir (2 2149,1 ming so'm), Chilonzor (5 127,2 ming so'm), Yakkasaroy (2 2149,1 ming so'm), Mirobod (5 508,0 ming so'm) Uchtepa (2 949,9 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'sish sur'ati
Toshkent sh.	3 407,0	101,3
Uchtepa	2 949,9	101,9
Bektemir	22 149,1	100,6
Yunusobod	2 757,2	100,4
Mirzo Ulug'bek	2 405,2	100,3
Mirobod	5 508,0	102,3
Shayxontohur	2 953,9	107,0
Olmazor	1 567,9	102,9
Sergeli	3 287,6	97,7
Yakkasaroy	6 056,6	99,9
Yashnobod	2 473,9	97,6
Chilonzor	5 127,2	101,7


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, foizda)



2020-yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahri bo'yicha aholi jon boshiga 3 407,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,3 % tashkil etdi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sish Shayxontohur (107,0 %), Olmazor (102,9 %), Mirobod (102,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Sergeli (97,7 %) hamda Yashnobod (97,6 %) tumanlarida qayd etilgan.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi (jami chakana savdo aylanmasida)



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi eng katta bo'lgan tumanlar: Sergeli (53,8 %), Olmazor (45,9 %), Yunusobod (40,7 %) va Mirobod (49,5 %) tumanlari. Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkich Yashnobod (25,3 %) va Bektemir tumanlari (10,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


2020-yil yanvar-mart

2020-yil yanvar-mart oylarida ulgurji savdo

2020-yil yanvar-mart oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 10 042,0 mlrd. so'mni yoki 2019-yilning shu davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 94,4 % ga o'sib 2076,3 mlrd so'mni va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 20,7 % ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar 7 965,7 mlrd. so'mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,3 % ni tashkil qildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi (jami savdoga nisbatan, % da)

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tovar aylanmasi 3 077,1 mlrd. soʻmga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 35,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng koʻp ulushi Shayxontohur (97,1 %), Bektemir (94,9 %), Uchtepa (92,5 %) va Yunusobod tumani (84,1 %) eng past ulush esa Yakkasaroy (68,1 %), Olmazor (64,7 %) va Sergeli tumanlariga (73,2 %) toʻgʻri kelgan.







Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi (jamiga nisbatan foizda)

2020 yilning yanvar–mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 042,0 mlrd. soʻmni yoki 2019 yilning shu davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega boʻlgan tumanlar: Yakkasaroy - 13,6 %, Olmazor - 13,9 %, Mirzo Ulugʻbek- 11,8 %, Mirobod - 11,8 %. Baʼzi tumanlar yaʼni Yashnobod (7,0 %), Uchtepa (5,2 %), Bektemir tumanlarida (1,4 %) jamiga nisbatan eng past koʻrsatkich qayd etildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi (jami nisbatan foizda)



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 1,8 % ga kamayib, 7965,7 mlrd. soʻmga etdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 79,3 % ni tashkil qildi

Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori boʻlgan tumanlar: Mirzo Ulug'bek 12,7 %, Mirobod 11,1 % Shayxontohur - 11,3 %, Yunusobod- 8,0 % hamda Olmazor - 11,3 %. Eng past ko'rsatkich Bektimir tumanida (1,7 %) qayd etilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasining (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda (2020-yil yanvar-mart oylari holatiga)



Umumiy tovar aylanmasi hajmining 3279,9 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga toʻgʻri keldi 2019 yilning shu davriga nisbatan 2,0 % ga oʻsdi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 37,3 % ga teng boʻldi.

Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar 37,3

Kichik korxonalar 35,0


Yirik korxonalar 27,7



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


2020-yil yanvar-mart

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Toshkent shahrida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 20,7 % ga teng bo'lib, hajmi 2 076,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Olmazor tumani - 23,8 Yakkasaroy tumani - 21,0 %, Chilonzor tumani - 12,9 %, Mirobod tumani - 10,1 %. Ba'zi tumanlar ya'ni Uchtepa - 1,9 % va Bektemir tumanida - 0,4 % ko'rsatkich qayd etildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Chilonzor - 53,4 %, Yakkasaroy - 48,5 %, Shayxontohur - 28,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani - 3,7 %, Uchtepa tumani - 8,2 %, Yunusobod tumani - 12,8 % bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahar statistika boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi



Ma'lumot uchun telefon:

71-230 88 20

71-230 88 21